

Uralova Oysuluv Poyan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası mudiri f.f.d., (DSc), dotsent

[E-mail: oysuluv.tersu.2019@mail.ru](mailto:oysuluv.tersu.2019@mail.ru)

UDK: 811.81.313

LINGVISTIK UNIVERSALIYALAR VA MILLIY TIL TIZIMINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvistik universalıylar nazariyasi hamda milliy til tizimlarining tipologik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro munosabat qiyosiy-tipologik aspektda tahlil qilinadi. Tadqiqotda absolyut va implikatsion universalıylar mohiyati yoritilib, ularning milliy tillardagi namoyon bo'lish shakllari tahlil etiladi. O'zbek va ingliz tillari misolida morfologik, sintaktik hamda semantik darajadagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. Tadqiqot natijasida universalıya va variativlikning o'zaro dialektik bog'liqligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: lingvistik universalıya, tipologiya, til tizimi, qiyosiy tahlil, variativlik, absolyut universalıya, implikatsion universalıya.

Урало́ва Ойсу́лув По́ян кызы

Термезский университет экономики и сервиса

Заведующая кафедрой иностранных языков и литературы,

доктор филологических наук (DSc), доцент

[E-mail: oysuluv.tersu.2019@mail.ru](mailto:oysuluv.tersu.2019@mail.ru)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ УНИВЕРСАЛИЙ И ТИПОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация. В данной статье с сравнительно-типологической точки зрения анализируется взаимосвязь теории лингвистических универсалий и типологических характеристик национальных языковых систем. В исследовании раскрывается сущность абсолютных и имплекативных универсалий, а также анализируются формы их проявления в национальных языках. На примере узбекского и английского языков выявляются сходства и

различия на морфологическом, синтаксическом и семантическом уровнях. В работе обосновывается диалектическая взаимосвязь универсальности и вариативности.

Ключевые слова: лингвистическая универсалия, типология, языковая система, сравнительный анализ, вариативность, абсолютная универсалия, имплицативная универсалия.

Uralova Oysuluv Poyan qizi

Termez University of Economics and Service

Head of the Department of Foreign Languages and Literature,

Doctor of Philological Sciences (DSc), associate professor

E-mail: oysuluv.tersu.2019@mail.ru

A COMPARATIVE ANALYSIS OF LINGUISTIC UNIVERSALS AND TYPOLOGICAL FEATURES OF THE NATIONAL LANGUAGE SYSTEM

Annotation. This article analyzes the relationship between the theory of linguistic universals and the typological characteristics of national language systems from a comparative-typological aspect. The study sheds light on the essence of absolute and implicative universals and analyzes their forms of manifestation in national languages. On the example of Uzbek and English, similarities and differences at the morphological, syntactic and semantic levels are identified. The study substantiates the dialectical relationship between universality and variation.

Keywords: linguistic universality, typology, language system, comparative analysis, variation, absolute universality, implicative universality.

Kirish.

Lingvistik universalialar muammosi umumiy tilshunoslikning markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Universallik tushunchasi tillar o'rtasidagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash va ularni qiyosiy-tipologik tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, milliy til tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari universallikni turlicha namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Ushbu maqolada lingvistik universalialar nazariyasi va milliy til tizimlarining tipologik xususiyatlari

o'rganilib, ularning o'zaro munosabati ingliz va o'zbek tillari misolida solishtiriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – universallik va variativlik o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni aniqlash va milliy tillarda ularning ifodalanish shakllarini tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili.

Til universalialari turli tillarda uchraydigan umumiy struktur qonuniyatlarni aniqlashga qaratilgan nazariy yo'nalish sifatida XX asrda faol rivojlandi. J.Grinberg tomonidan taklif etilgan universaliala tushunchasi tillararo qiyosiy tahlil asosida shakllantirilib, u fonologik, morfologik va sintaktik darajalarda kuzatiladigan umumiyliklarni aniqlashga xizmat qiladi [3]. Keyinchalik B.Komri va boshqa tadqiqotchilar ushbu nazariyani tipologik izlanishlar bilan boyitdilar [2]. Shu bilan birga, har bir milliy til o'zining tipologik xususiyatlariga ega. Til tizimidagi variativlik universalialarni inkor etmaydi, aksincha, ularning konkret realizatsiya shaklini belgilaydi. N.Xomskiy esa universalialarni inson tafakkuriga xos tug'ma grammatik model bilan bog'laydi [1]. Bu yondashuv universalialarni psixolingvistik asos bilan tushuntiradi. N.Xomskiy tomonidan ilgari surilgan generativ grammatika nazariyasi lingvistik universalialarni kognitiv nuqtayi nazardan izohlashga xizmat qiladi. Uning "Aspects of the Theory of Syntax" asarida universalialar inson tafakkuriga xos tug'ma til qobiliyati bilan bog'lanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola lingvistik universalialar va milliy til tizimining tipologik xususiyatlari qiyosiy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, mavzuni yoritib berishda lingvistik, kulturologik, pragmatik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Lingvistik universaliala - dunyo tillarining barchasiga yoki aksariyatiga xos bo'lgan umumiy qonuniyatdir. Universalialar ikki turga bo'linadi:

Absolyut universalialar - barcha tillarda mavjud bo'lgan hodisalar.

Implikatsion universalialar -bir xususiyat mavjudligi boshqasini taqozo etadi. Masalan, agar til postpozitsiyali bo'lsa, u ko'pincha SOV so'z tartibiga ega bo'ladi. Bu implikatsion universalialaga misoldir.

Til tipologiyasi tillarni struktur mezonlar asosida tasniflaydi. Morfologik tipologiyaga ko‘ra tillar flektiv, agglutinatив va analitik turlarga bo‘linadi. O‘zbek tili agglutinatив tipga mansub bo‘lib, grammatik ma’nolar affikslar orqali ifodalanadi: *kitob-lar-imiz-da*. Ingliz tili esa analitik xususiyatga ega bo‘lib, grammatik munosabatlar ko‘pincha yordamchi so‘zlar orqali ifodalanadi: *has gone, will come*.

Bu holat universalіya va tipologik farq o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi [4].

Universalіyalar tilni inson tafakkuri va kognitiv mexanizmlari bilan bog‘liq holda tushuntirishga imkon beradi. Chunki til -bu nafaqat milliy madaniyat mahsulі, balki inson ongining universal imkonіyatlari ifodasidir. Shu ma’noda, universalіya va tipologiya o‘zaro qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi ilmiy kategoriyalardir. Lingvistik universalіyalar fonologik, morfologik, sintaktik va semantik darajalarda namoyon bo‘ladi. Masalan, barcha tillarda unli va undosh fonemalar mavjudligi fonologik universalіyadir. Har qanday tilda bo‘g‘in markazi sifatida unli tovush qatnashadi. Biroq fonotaktik imkonіyatlar tipologik jihatdan farqlanadi. Ingliz tilida *street, strong* kabi murakkab undosh klasterlari mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida bunday kombinatsiyalar tabiiy emas. Bu holat umumiy fonologik model va milliy struktur cheklovlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi [5].

Morfologik darajada ham universalіya va variativlikning uyg‘unligi kuzatiladi. Deyarli barcha tillarda ko‘plik kategoriyasi mavjud. O‘zbek tilida ko‘plik -lar affiksi orqali ifodalanadi ingliz tilida esa -s yoki -es qo‘shimchalari yordamida. Universallik kategorіyaning mavjudligida, tipologik farq esa uning realizatsiya usulidadir. Xuddi shuningdek, zamon kategoriyasi ham universaldir. O‘zbek tilida zamon affikslar orqali ifodalanadi *keldi, keladi*, ingliz tilida esa analitik vositalar -yordamchi fe’llar orqali *has come, will come*. Bu farq agglutinatив va analitik tizimlarning tipologik xususiyatlarini aks ettiradi. O‘zbek tilida grammatik ma’nolar ketma-ket affikslar orqali qo‘shilib boradi *yoz-dir-il-ma-di*, ingliz tilida esa sintaktik konstruktsiyalar kengayadi *was not made to write*. Demak, grammatik ma’noning mavjudligi universaldir, ammo uning ifodalanish mexanizmi tipologik jihatdan farqlanadi. Semantik darajada esa inson tajribasiga

xos kategoriyalar universalini tashkil etadi. Rang nomlari, qarama-qarshilik (katta–kichik / big–small), son tushunchasi kabi birliklar deyarli barcha tillarda mavjud. Biroq rang spektrining segmentatsiyasi yoki ma’no maydonining chegaralari milliy tafakkur bilan bog‘liq ravishda farqlanadi. Bu esa lingvistik universal va lingvokulturologik xususiyatlarning o‘zaro aloqasini namoyon etadi [6].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, universal va tipologik variativlik dialektik birlikni tashkil etadi. Universal tilning invariant modeli, tipologik xususiyat esa uning konkret milliy realizatsiyasidir. Tillar o‘rtasidagi farqlar universalialarni inkor etmaydi, aksincha, ularning yashash va namoyon bo‘lish shaklini belgilaydi. Sintaktik darajada predikativlik universalisasi alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday gapda predikativlik mavjud bo‘lib, u subyekt va predikat munosabatini ifodalaydi. O‘zbek tilida *U keldi*, ingliz tilida *He came* misollarida predikativlik umumiydir. Biroq ingliz tilida bog‘lovchi fe‘lning majburiyligi o‘zbek tilida esa ayrim hollarda tushirilishi tipologik farqni ko‘rsatadi.

Lingvistik universalliklar insonlarning tug‘ma tilni o‘zlashtirish qobiliyatini ta’kidlaydi. Shaxslar ma’lum bir tildan qat’i nazar, tilni o‘zlashtirishga tabiiy moyillikka ega. Bu universalliklar tilni o‘rganish va undan foydalanish bilan bog‘liq asosiy mexanizmlarga oydinlik kiritadi. Lingvistik universallik og‘zaki va yozma tillarga ham tegishli. Umumiy xususiyatlar tilning turli jihatlarini, jumladan, fonologik naqshlar, sintaktik tuzilmalar, semantik tushunchalar va pragmatik tamoyillarni qamrab oladi. Bu xususiyatlar og‘zaki va yozma muloqot shakllarida mavjud [7].

Til universalari tushunchasi lingvistik faktlarni birlashtirish jarayoni bilan turli tillar tizimlari o‘rtasida umumiy xususiyatlarni o‘rnatish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Universalarning turlari quyidagilar:

Ta’rif universalari;

Empirik universal.

Ta’rif universalari so‘zlovchining o‘z ekstrapolyatsiyasiga egaligi va undan foydalanishi bilan bog‘liq. Bu shuni anglatadiki, bu tillar tizimida olim

bilmaydigan lingvistik hodisa mavjud. Masalan, hind-yevropa tillarida unli va undosh tovushlarning qarama-qarshiligi mavjud. Bu hodisa dunyoning boshqa tillarining tizimlari deb hisoblanishi mumkin. Empirik universallar aqliy yoki xayoliy tajriba bilan bog‘liq bo‘lib, aniq lingvistik xususiyat barcha tillarda mavjud bo‘lishi mumkin, ikkinchidan, u yoki bu xususiyat barcha tillarda mavjudmi yoki yo‘qligini bilmaydi. Masalan, kompozitsiya morfologik tuzilishiga qaramay, barcha tillarda mavjud bo‘lishi mumkin.

Cheklanmagan universallar. Ushbu turdagi universallarga ko‘ra, gipotezalarning lisoniy taxminlari cheklanmagan. Masalan, barcha tillarda unlilar mavjud yoki barcha tillar uchun fonemalar soni 10 tadan kam yoki 70 tadan ko‘p bo‘lmasligi kerak yoki har bir tilda kamida 2 ta unli mavjud.

Universallar ikki xususiyat o‘rtasidagi munosabatni o‘z ichiga oladi. Agar til ma‘lum xususiyatlarga ega bo‘lsa, u ba‘zi o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega, lekin aksincha emas, ya‘ni ikkinchisining mavjudligi birinchisining mavjudligini bo‘shatmaydi. Masalan, agar tilda ikkilik son kategoriyasi bo‘lsa, u ko‘plik kategoriyasiga ham ega, lekin aksincha emas. Bunday oqibatlar, ayniqsa, tillarning fonologik jihatida juda ko‘p.

Til ierarxiyasi darajalari bilan bog‘liq universallar:

Fonetik xususiyatlar: barcha tillarda unli va undosh tovushlar mavjud.

Morfologik: ko‘pgina tillarda so‘zlar morfemalarga bo‘linadi, morfemalar to‘liq va yordamchi elementlar vazifasini bajaradi.

Leksik: barcha tillarda lug‘at semantik maydonlar tizimidir. Barcha tillarda polisemiya, sinonimiya, antonimiya mavjud [4].

Sintaktik: barcha tillarda ega-fe‘l-obyektning taqsimlanishi mavjud. To‘liq universallarga misollar: “Agar tilda alohida morfemalar bo‘lsa, ular oldindan fiksatsiya yoki suffiksatsiya yoki ikkalasi ham mavjud”. “Agar til faqat suffiksatsiyaga asoslangan bo‘lsa, u postfiksatsiyaga ega tildir. Agar til faqat prefiksatsiyaga asoslangan bo‘lsa, u prefikslarga ega tildir”.

Tilshunoslikda statistik universalialar dunyo tillarining ko‘pchiligida uchraydigan, biroq istisnosiz bo‘lmagan umumiy xususiyatlarni anglatadi. Ular

absolyut universalialar kabi qat'iy emas, balki ehtimollik tamoyiliga asoslanadi. Bunday universalialar tillarning tabiiy rivojlanish tendensiyalarini, inson tafakkuri va kommunikativ ehtiyojlari bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarini ochib beradi. Ushbu tushuncha tipologik tadqiqotlar doirasida ayniqsa Joseph Greenberg ishlarida ilmiy asosda shakllantirilgan. Statistik universalialar shuni ko'rsatadiki, ma'lum bir grammatik yoki fonologik hodisa dunyo tillarining, masalan, 70–90 foizida uchrashi mumkin, ammo ayrim tillarda mavjud bo'lmashligi tabiiy hisoblanadi. Demak, bu turdagi universalialar qat'iy qoida emas, balki kuchli tendensiyaning ifodalaydi. Aynan shu jihati bilan ular til xilma-xilligini inkor etmaydi, aksincha, o'xshashlik va tafovutni birgalikda tushuntirish imkonini beradi [3].

Statistik universalialar tilning kognitiv asoslarini ham aks ettiradi. Inson tafakkuri murakkab, ammo iqtisodiy va samarali strukturalarni afzal ko'radi. Shuning uchun dunyo tillarida ma'lum sintaktik modellarning ustunligi kuzatiladi. Bu ustunlik biologik, psixologik va kommunikativ omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, statistik universalialar til evolyutsiyasi jarayonini tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. Til tizimi tarixiy rivojlanish davomida murakkablashishi yoki soddalashishi mumkin, biroq umumiy tipologik tendensiyalar saqlanib qoladi. Bu esa lingvistik jarayonlarning ichki qonuniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, statistik universalialar til tizimining ehtimollik asosidagi umumiy qonuniyatlaridir. Ular mutlaq emas, lekin kuchli ilmiy dalillarga asoslanadi. Statistik universalialik tushunchasi til xilma-xilligini inkor etmasdan, aksincha, uni umumiy qonuniyatlar doirasida tushuntirish imkonini beradi. Zamonaviy lingvistika aynan shu yondashuv orqali tillar o'rtasidagi umumiylik va o'ziga xoslikni uyg'un holda talqin etmoqda.

Adabiyotlar

1. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge: MIT Press, 1965.
– 282 p.

2. Comrie B. Language Universals and Linguistic Typology. Oxford: Blackwell, 1989. – 264 p.
3. Greenberg J. H. Universals of Language. Cambridge: MIT Press, 1963. – 288 p.
4. Khusenova M. U. Comparative typology of the english and uzbek languages. International journal of literature and languages. 2023. – P.44-48.
5. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004. – 283 p.
6. Rasulova M.I., Shukurova Z.I. Comparative typology of english, uzbek and russian languages. – Tashkent. 2017. – 348 b.
7. Виноградов В.В. Очерки по русской семантике. – Москва: Наука, 1958. – 312 с.